

# MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNI SENSOR TARBIYASI VAZIFALARI

## ЗАДАЧИ СЕНСОРНОГО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

### TASKS OF SENSORY EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION

**O'skanov Jasur.**  
**Zarbdor tumani**  
**MT bo'limi**  
**TSTrahbari sho'basi rahbari**

#### **Annotatsiya**

Bolaning sensor rivojlanishi bu uning predmetlarning shakli, rangi, hajmi, borliqdagi namoyonligi, shuningdek hidi, ta'mi kabi xususiyatlarini idrok etishni shakllantiradi. Ik va maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor rivojlanishining ahamiyatini inobatga olish juda o'rinlidir. Aynan shu yosh atrofidagi dunyo haqidagi g'oyalarni to'plash, sezgi organlari faoliyatini yaxshilash uchun eng maqbuldir. Sensorli rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan sensorli ta'lim maktabgacha ta'limning asosiy jihatlaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** Sensorli tarbiya, "Sensorlik madaniyati" tushunchasi  
M. Montessori asarlari, 802-son qaror.

#### **Аннатация**

Сенсорное развитие ребенка – это его восприятие формы, цвета, величины, внешнего вида предметов, а также таких их свойств, как запах и вкус. Важно учитывать важность сенсорного развития у детей младшего и дошкольного возраста. Сбор идей об окружающем мире в этом возрасте — лучший способ улучшить работу органов чувств. Сенсорное воспитание, направленное на сенсорное развитие, является одним из ключевых аспектов дошкольного образования.

**Ключевые слова:** Сенсорное воспитание, понятие «сенсорная культура» М. Монтессори труды, Постановление № 802.

### **Annatzia**

The sensory development of a child is his perception of the shape, color, size, appearance of objects, as well as their properties such as smell and taste. It is important to consider the importance of sensory development in young and preschool children. Gathering ideas about the world around you at this age is the best way to improve your senses. Sensory education, aimed at sensory development, is one of the key aspects of preschool education.

**Key words:** Sensory education, the concept of "sensory culture" M. Montessori works, Decree No. 802.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son qaroriga asosan «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti»ning maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasida sensor tarbiya yo'nalishi ko'rsatib o'tilganligini ta'kidlash joizdir.

Maktabgacha tarbiya pedagogikasining butun rivojlanish tarixi davomida sensor tarbiya bolalarni tarbiyalashga doir muammolar qatorida asosiy o'rin olib kelgan.

Sensorli tarbiya bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qicmidir. Voyaga yetgan odam bolaga bizning dunyomizni qanchalik yorqinroq va rang-barangroq ko'rsatsa, bolaning borliq haqiqatni anglashi shunchalik boy va ravshan bo'ladi.

Bolaning sensor rivojlanishi bu uning predmetlarning shakli, rangi, hajmi, borliqdagi namoyonligi, shuningdek hidi, ta'mi kabi xususiyatlarini idrok etishni shakllantiradi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor rivojlanishining ahamiyatini inobatga olish juda o'rinlidir. Aynan shu yosh atrofidagi dunyo haqidagi g'oyalarni to'plash, sezgi organlari faoliyatini yaxshilash uchun eng maqbuldir. Sensorli rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan sensorli ta'lim maktabgacha ta'limning asosiy jihatlaridan biridir.

Sensorli tarbiyaning asosiy yo'nalishi bolani sensor madaniyati bilan bog'liq bo'lishi kerak. "Sensorlik madaniyati" tushunchasi M. Montessori asarlari tufayli maktabgacha pedagogikaga kirib keldi. Bolaning sensor madaniyati uning insoniyat tomonidan yaratilgan sensor madaniyatini o'zlashtirishi natijasidir.

Sensorli tarbiya bu - maqsadga muvofiq hissiy bilish usullarini shakllantirish va idrokni takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Sensorli tarbiya - bu maqsadga muvofiq ravishda takomillashtirish, bolalarda hissiy jarayonlar (sezgi, idrok, tasavvurlar) ning rivojlanishini anglatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi vazifalari:

- 1) bolalarda pertseptiv (tadqiqotlilik) harakatlar tizimini shakllantirish;
- 2) bolalarda cencorli etalonlar tizimini shakllantirish;
- 3) bolalarda pertseptiv harakatlar tizimi va cencorli etalonlar tizimini mustaqil ravishda qo'llash qobiliyatini shakllantirish: amaliy faoliyatga etalonlarni bilish faoliyatiga bog'liq holda.

Sensorli tarbiyaning mazmuni - bu maktabgacha yoshdagi bola tomonidan o'zlashtiriladigan bir qator xususiyatlar va fazilatlar, predmet va ko'rinishlarni o'z ichiga oladi. Amaliy harakatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, nima qilish kerakligini oldindan anglash va tahlil

qilishga bog'liq. Predmetlarni idrok etish, ularni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyati ma'lum bir faoliyat jarayonida o'zo'zidan shakllanmaydi; bunda ma'lum bir tizimda maxsus o'qitilishni talab etadi. SHunday qilib, predmetlar shakli, o'lchamini, rangini, materiallarini, qismlarini va ularning fazoviy munosabatlarini, predmetning boshqalarga nisbatan harakat tezligi va yo'nalishini, predmetlarning o'lchamiga nisbati, predmetlarning uzoqligi va boshqalarni ta'kidlash muhim ahamiyatga ega. Har bir yoshda sensorli tarbiyaning o'ziga xos vazifalari, sensorli madaniyatning ma'lum bir bo'g'ini bor. Tug'ilgandan 6

yoshgacha bo'lgan bolalarni sensor tarbiyasida asosiy vazifalarni aniqlash mumkin:

Bola hayotining 1-yilini taassurotlar bilan boyitish. Bolaga harakatlanadigan yorqin o'yinchoqlarni kuzatib borishi, har xil shakl va o'lchamdagi buyumlarni tanlay olishi uchun sharoit yaratish kerak.

Hayotining 2-3-yilida bolalar rang, shakl va o'lchamlarni predmetlarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida ajratib ko'rsatishni o'rganishlari, rang va shaklning asosiy turlari va o'lchamdagi ikkita predmet o'rtasidagi munosabatlar to'g'risida tasavvurlarni to'plashlari kerak.

Hayotining 4-yilidan boshlab bolalarda sensorli etalonlar shakllanadi: ranglar, geometrik shakllar va bir nechta predmetlar o'rtasidagi o'lcham munosabatlar to'g'risida barqaror, nutqga asoslangan ranglar taavvurlarini mustahkamlashdan iborat bo'ladi.

Keyinchalik, bolalarni rang sayqallari, geometrik shakllar variantlari va ko'proq miqdordagi predmetlar bilan tanishtirish kerak.

Etalonlarni shakllantirish bilan bir vaqtning o'zida bolalarga predmetlarni tekshirish usullarini o'rgatish kerak: ularni predmetlar namunalarini rang va shakli bo'yicha guruhlash, shaklni ketma-ket tekshirish va tavsiflash va tobora murakkab ko'z harakatlarini amalga oshirish.

SHu natijada quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

-bolaning sensor rivojlanishi bolalar bog'chasida bo'lgan vaqt davomida doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak.

- bu jarayonda tarbiyachi mavqei muhim ahamiyatni kasb etadi, chunki u bolaning atrof olamni bilish jarayonining murabbiysi hisoblanadi.

-sensor rivojlanishning vazifalari bolaning o'sishi bilan yanada murakkablashadi, chunki dunyoni anglash jarayoni murakkablashadi, bilish usullari va olingan ma'lumotlarni qayta ishlash usullari yanada takomillashadi va boyiydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. İlk yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi – Sh.Abdullayeva.
2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.12.2020

yildagi 802-son